



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## MAVHUM VA MODDIY HODISALARNI IFODALOVCHI ANTONIM KOMPONENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLAR

**Samadova Visola Baxtiyor qizi**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
[visolasamadova5@gmail.com](mailto:visolasamadova5@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179524>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz, o'zbek va rus tillarida antonim komponentli frazeologik birliklar haqida so'z yuritilgan. Uchala tildagi mavhum va moddiy hodisalarni ifodalovchi antonim komponentli frazeologik birliklar chog'ishtirma tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, frazeosemantik guruh, moddiy ma'no, mavhum ma'no, antonim komponent.

**Kirish.** Bu frazeosemantik guruhda biz mavhum va moddiy hodisalarni ajratamiz. Biz visual (ko'rish) -hissiy tasavvurga asoslanishi mumkin bo'lmagan, faqat og'zaki belgi (tovush yoki grafik) tasviriga asoslanishi mumkin bo'lmagan mavhum tushunchalarni ko'rib chiqamiz va u bilan bog'lanish orqali tushunchaning butun mazmuni paydo bo'ladi. Moddiy hodisalarni haqiqatda mavjud va moddiy jihatdan aniqlangan hodisalar deb ataymiz.

O'rganilayotgan materiallar orasida o'rganilayotgan har uchala tilda ham mavhum ma'noga ega bo'lgan, "argument, ish, hodisa" ni bildiruvchi frazeologik birliklar mavjud. Ingliz tilida ularning soni uchta, o'zbek va rus tillarida esa bitta:

*Open and shut* (ochiq va yopiq) – eng oson, qiyin emas (argument);

*An open and shut case* (ochiq va yopiq ish (hodisa)) – oddiy, elementar ish;

*It'll be a cold day in hell when something happens* (biror narsa sodir bo'lganda, do'zaxda sovuq kun bo'ladi) – aql bovar qilmaydigan voqea, aql bovar qilmaydigan holat;

*Boshi tog'day, oyog'i qilday* – foydasiz ish; boshida ahamiyatli, muhim tarzda boshlanib, oxirida arziyasiz ishga aylanish.

*Начать и кончить* - (boshlamoq va tugatmoq) -ma'lum bir darajada qilindi deb o'ylangan, ammo haqiqatda boshlanmagan ishlar uchun ishlatiladi.

Biror narsaning "tafsiloti, mohiyati, ma'nosi" ni bildiruvchi frazeologik birliklar ikki tilda ham kuzatiladi:

*Ins and outs* (kirish va chiqishlar) – barcha detallar, tafsilotlar;

*The ins and outs of the situation* (vaziyatning kirish va chiqishlari) – vaziyatning asosiy faktlari va tafsilotlari / muammolar;



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

*The beginning and the end of smth* (biror narsaning boshi va oxiri) – biror narsaning mohiyati, asosi;

*The long and the short of it* (ning uzoq va qisqasi) – barcha tafsilotlar; mohiyat, asosiy narsa; qisqasi;

*The top and bottom of it* (ning yuqori va pastki qismi) – mohiyat, ma'no; bir necha so'z bilan ifodalangan vaziyatning ma'nosi.

Rus tilida xuddi shu ma'noga ega bir nechta frazeologik birliklarni uchratdik:

*Альфа и омега* (чего-л.)- alfa va omega (lotin alifbosining birinchi va oxirgi harflari); boshlanishi va oxiri; ibtido va intiho; asos; biror bir ishning boshlanishi va oxiri

*Знать все ходы и выходы*-butun iker-chikirlarigacha bilmoq; ishning ko'zini yaxshi bilmoq.

Ammo shuni ta'kidlaymizki, o'zbek tilida biror narsaning tafsilotini, mohiyatini bildiruvchi quyidagi frazeologik birliklar uchraydi:

*Ipidan ignasigacha*-boshdan-oyoq, boshidan oxirigacha

*Qilidan quyrug'igacha*- boshdan-oyoq, boshidan oxirigacha

Biror narsaning "*farq, tafovut*" ini bildiruvchi frazeologik birliklarni uchala tilda ham uchratganmiz. Ingliz tilida farq "*day*" va "*night*" so'zlari yordamida ifodalanadi:

*Different as night and day* (kecha va kunduz kabi farq qiladi) – butunlay boshqacha.

O'zbek va rus tillarida esa tilida esa asosan "*yer/земля*", "*osmon/ небо*" so'zlari yordamida qo'llaniladi:

*Farqi yer bilan osmonday*–farqi, tafovuti juda katta ;

*Farqi ot bilan tuyacha*– farqi, tafovuti juda katta ;

*Как небо от земли* (*земля и небо*)- yer bilan osmondek (farqi bor); bir-biridan katta farq qiladi. Я деликатно напомним, что они и я-это разница-с земля и небо (Достоевский, Скверный анекдот). Men odob bilan shuni eslatib o'tmoqchiman-ki, ular bilan mening oramizdagi farq-yer bilan osmonchadir.

Biror-bir muammoni bildiruvchi frazeologik birliklar ingliz tilida ham, o'zbek va rus tillarida ham uchraydi. O'xshash frazeologik birliklar har uchchala tilda ham "*hayot-(mamot) o'lim*" komplementar antonimlari yordamida beriladi. ("*life – death*", "*жизнь -смерть*"):

*A matter of life and death* – hayot yoki o'lim masalasi;

*Вопрос жизни и смерти*- (hayot-mamot masalasi) juda muhim ,hal qiluvchi masala.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Hayot va mamot masalasi. (Mamot so'zi arabcha bo'lib, "oxirat" yoki "o'lim" degan ma'nolarni ifodalaydi).

Qarama-qarshi ma'noni bildiruvchi frazeologik birliklar o'rganilayotgan uchala tilda ham kuzatiladi. Biroq ularning soni bir-biriga mos kelmaydi, ingliz tilida ular 19 tani tashkil etadi:

*Bouquets and brickbats* – so'zma-so'z: guldastalar va g'isht parchalari; maqtoov va ayblash;

*Ebb and flow* – suv oqimining tushishi va ko'tarilishi, tez o'zgarish;

*Flux and reflux* – paydo bo'lish va yo'qolish; almashinish.

*Likes and dislikes* – yoqtirish va yoqtirmaslik;

*Ups and downs* – ko'tarilishlar va pasayishlar, yerning notekisligi, chuqurlar;

*Wax and wane* (oshish va kamayish) – bir oshib, bir kamaymoq;

*Give or take* (bermoq yoki olmoq) – foyda yoki zarar;

*Heads or tails* (boshlar va dumlar) – tanganing old va orqa tomoni, burgut va quyruq;

*Alpha and omega* – alfa va omega, boshlanish va oxir;

*Black or white* – qora yoki oq;

*Black and white* – qora va oq, yaxshi va yomon, alohida va aniq;

*Yes and no* – ha va yo'q;

*All or nothing* – hammasi yoki hech narsa;

*Pro and con* – ijobiy va salbiy tomon; tarafdor yoki qarshi;

*The pros and cons* – ijobiy va salbiy tomonlar;

*Feast or famine* – goh bazm, goh ochlik / hamma narsa yoki hech narsa;

*Thread and thrum* – hammasi birga, yaxshi va yomon;

*Uppers and downers* (yuqori va pastki) – boylik, biznes va boshqalardagi ijobiy va salbiy tebranishlar;

O'zbek tilida esa bu guruhga kiruvchi faqat bitta frazeologik birlikni topa oldik:

*Oq va qora* - yaxshi va yomon

Rus tilida esa bunday frazeologik birliklarni uchratmadik.

O'rganilayotgan materialda ingliz, o'zbek va rus tillarida frazeologik birliklarning ma'nosi mos kelmasligi mumkin bo'lgan holatlar mavjud. Masalan, ingliz tilining o'rganilayotgan frazeologik birliklari orasida "*taqdir*" ni bildiruvchi frazeologik birliklar mavjud:

*The sweet and the bitter of life* (hayotning shirin va achchiq damlari) – quvonch va qayg'u, taqdirning o'zgarishlari;



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

*Power of life and death* (hayot va o'limning kuchi) – hayot va o'lim huquqiga ega bo'lish;

“*Yolg'on*”: *A plaus fraud* – begunoh yolg'on;

“*Shafqatsizlik*”: *The cat and mouse game* – mushuk va sichqon o'yini, ma'nosiz shafqatsizlik;

*A life-and-death struggle* – hayot va o'lim uchun kurash;

“*Xotirjamlik*”: *Calm before the storm / the lull before the storm* – bo'rondan oldingi xotirjamlik;

Biror narsaning “*o'zgaruvchanligi*”: *Go up and down like a yoyo* (yoyo (o'yinchoq) kabi yuqoriga va pastga tushish) – goh ko'tarilib, goh tushmoq; tebranmoq;

“*Munosabat*”: *A love-hate relationship* – sevgi-nafrat munosabatlari;

*Cross questions and crooked answers* (aralash/qiyshiq savollar va egri javoblar) – javoblar savollarga mos kelmaydigan savol-javob o'yini;

“*Murosa*”: *Give and take* (bermoq va olmoq) – almashinish (qulay va noqulay sharoitlar haqida) murosaga kelish, o'zaro yon berish;

*Give-and-take policy* (berish va olish siyosati) – o'zaro yon berish siyosati;

*A lot of give-and-take policy* (ko'p bermoq va olmoq) – ko'plab suhbatlar, fikr almashishlar; fikrlar almashish, murosa;

“*Qoida*”: *Dos and don'ts* – qoidalar;

“*Harakat*”: *The comings and goings* – harakat va faollik;

“*Rang*”: *Light and shade* (nur va soya) – keskin kontrastlar; qarama-qarshiliklar;

“*Miqdor*”: *Be a drop in the ocean* (okeanda bir tomchi bo'lmoq); ahamiyatsiz miqdor, o'lcham, ayniqsa zarur bo'lgan narsalarga nisbatan;

*A drop in the bucket* (chelakdagi tomchi) – dengizdan tomchi;

“*Ta'm*”: *Sweet and sour* (shirin va nordon) – shirin-nordon;

“*Narsa*”: *This and that* (bu va u) – bu va u, juda muhim bo'lmagan turli xil narsalar;

*This, that and the other (thing)* (bu, u va boshqa (narsa)) – bir nechta turli xil narsalar.

Ingliz tilida ichimliklarni bildiruvchi frazeologik birliklar ham mavjud. Masalan, o'rganilayotgan frazeologik birliklar orasida quyidagilarni uchratish mumkin:

*Fire water* (olovli suv) – kuchli ichimliklar;

*Tom and Jerry* (Tom va Jerri – multfilm qahramonlari) – ziravorlar qo'shilgan issiq punsh (qaynoq ichimlik turi).



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Ushbu frazeologik birlikning etimologiyasi ingliz yozuvchisi P. Egan tomonidan “Londondagi hayot yoki janob Jerri Xotorn va uning nafis do’ssti Korinflik Tom” (Life in London, or Days and Nights of Jerry Hawthorne and his elegant friend Corinthian Tom) kitobining mashhurligini oshirish maqsadida asarda yangicha, hech kimga noma’lum ichimlik-sutli punshni yaratishi bilan bog’liq. Keyinchalik u ushbu o’ylab topilgan ichimlikni kitobidagi qahramonlar sharafiga “Tom va Jerri” deya nomladi. Bundan tashqari, “Tom” va “Jerry” nomlari animatorlar U. Xanna va J. Barbera tomonidan yaratilgan Amerika animatsion multfilmidagi qahramonlarning nomlari.

Ingliz tilida pulni bildiruvchi frazeologik birliklar ham topilgan:

*An arm and leg* (qo’l va oyoq) – ko’p pul;

*Unearned increment* – ishlab topilmagan daromad;

*Cash or credit* – naqd pul yoki kredit karta;

*Fore and aft* (old va orqa) – orqa, uzunlama (kemaning qismi).

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Э.М.Солодухо “Проблемы интернационализации фразеологии (на материале языков славянской, германской и романской группой)”-Казань: Изд-во Казанского университета,1982.-168 с. (24-bet)
2. Ю.П.Солодуб, Ф.Б.Альбрехт. ”Современный русский язык. Лексика и фразеология (сопоставительный аспект)”: учебник/ М.:Флинта: Наука, 2002. - 264 с. (207)
3. Кунин, А.В Большой англо-русский фразеологический словарь:ок.20000 фразеол. единиц/А.В. Кунин.-4-е изд. перераб. и доп. -М.: Русский язык,1984.- 944 с.
4. Е.Ф.Арсентьева “Сопоставительный анализ фразеологических единиц (на материале фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека в английском и русском языках) М.: Казань: Изд-во Казанского университета, 1989.-128 с.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati -Toshkent: ”O‘qituvchi” nashriyoti,1978.- 406 b.